

## SARATON ( CANSER ) KASALLIGINI KELIB CHIQISH SABABLARI, BOSQICHLARI VA DAVOLASH USULLARI

**Djumayeva Mahfuza Kayumovna**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining*

*Tibbiy kimyo kafedrasi assistenti*

[Dmahfuz51@gmail.com](mailto:Dmahfuz51@gmail.com)

**Haydarova Hulkar Axtamjon qizi**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining*

*Tibbiy kimyo kafedrasi assistenti*

[Hulkarhaydarova97@gmail.com](mailto:Hulkarhaydarova97@gmail.com)

**Shoqulova Shafoat Jasur qizi**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot institutining*

*Biotibbiyot fakulteti farmatsiya turlari bo'yicha yo'nalishi talabasi*

[Shafoatshoqulova585@gmail.com](mailto:Shafoatshoqulova585@gmail.com)

### ANOTATSIYA

Ushbu maqolada saraton kasalligining kelib chiqish sabablari va davolash usullari batafsil ko'rib chiqilgan. Saratonning muhit, genetic va turmush tarsi kabi turli omillardan kelib chiqishi ko'rsatib o'tilgan. Saratonni xalq tabobatida davolash usullari keltirilgan. Shuningdek, saratonni jarrohlik, kimyoviyterapiya, radiatsionterapiya, immunoterapiya va sintetik terapiya kabi zamonaviy davolash usullari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Saraton, genetic omillar, muhit omillari, turmush tarzi, jarrohlik, kimyoviy terapiya, radiatsion terapiya, immunoterapiya, germetikterapiya, sintetikterapiya, irsiyat, DNK.

Saraton( Rak )- bu tanadagi ichki to'qimalardan o'sadigan yomon sifatlari o'sma ya'ni shish hisonlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda barcha o'limlarning 15-20% I asosan saraton kasalligidan kelib chiqadi. Saraton kasalligining boshlanishi yashirin holda o'tadi, chunki u dastlab paydo bo'lganida, ko'pincha, uni aniqlash qiyin kechadi, keyinchalik esa uning belgilari ko'rinishi.[1]. Bu shishni saraton deb atalishi 2 ta: Qisqichbaqa o'z oviga yopishgani singari bushish( saraton) ham a'zoga yopishganligidan; yoki ko'pincha ko'rinishi yumaloqligi, rangi va atroflaridan qisqichbaqa oyoqlari singari tomirlar chiqishi sababli shunday nom berilgan bo'lsa kerak. [2]

*Saraton kasalligining kelib chiqish sabablari:*

1. Muhit omillari: Atrof-muhitda mavjud bo'lgan toksinlar (masalan, kimyoviy moddalar, radionuklidlar ) saratonning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ish joyidagi ba'zi xavfli moddalar, masalan, benzin, asbestos va boshqa kimyoviy birikmalar ham saraton rivojlanishini kuchaytirishi mumkin.

## 2. Genetik omillar.

Ayrim odamlar o'zlarining genetic xususiyatlari tufayli saratonga ko'proq moyil bo'lislari mumkin. Genlaridagi ayrim o'zgarishlar sababli ko'krak, tuxumdon, bachadon bo'yuni, yog'on ichak va oshqazon saratoni kabilar kelib chiqishi mumkin.

3. Turmush tarzi: Noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, tamaki chekish va spirtli ichimliklardan foydalanish saraton kasalligini rivojlanishiga olib keladi.

4. Viral infeksiyalar: Ba'zi viruslar, Masalan, guman papilloma virus (HPV), hepatit B vasepatit C viruslari saraton kasalligini rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

## 5. Yosh: Saraton ko'pincha, yoshi kattaroq odamlarda uchraydi,

Chunki yosh o'tishi bilan hujayralarning genetic materiallarida o'zgarishlar kuzatilishi mumkin.

### *Saraton kasalligining xavf omillari statistikasi*

95 % hollardasaraton yomon atrof-muhitvahayottarzitufaylikelibchiqadi:

- Tamaki chekish- 30 %;
- Oziq- ovqat- 35 %;
- Infektsiya- 10 %;
- Kasb bilan bog'liq kantserogenlar- 5 %;
- Ionlashtiruvchiva ultrabinafshanurlanish- 6 %;
- Alkogolizm- 2 %;
- Ifloslangan havo- 1 %;
- Jinsiyinfeksiyalar- 4 %;
- Past jismoniyfaollik- 4 %

Ko'pincha erta saraton ovqat hazm qilish tizimiga ta'sir qiladi. So'nggi 30 yil ichida yog'on ichak, oshqozonosti bezi va oshqozon saratoni bilan kasallanish keskin oshdi. Semirib ketish va qayta ishlangan oziq-ovqatlarga boy ovqatlanish saraton kasalligining ko'payishida sabab bo'lishi mumkin.[3]

*Saraton kasalligini davolash usullari.* Saratonni davolash usullari kasallikning turi, rivojlanish bosqichi va bemorning umumiyligi sog'lig'iga bog'liqbo'ladi. Asosiy davolash usullari quyidagilardan iborat:

## 1. Kimyoviy terapiya.

Saraton hujayralarini o'ldirish yoki ularning ko'payishini to'xtatish uchun kimyoviy dori-darmonlar qo'llaniladi. Bu usul ko'plab turdag'i saraton kasalligini davolash uchun samarali hisoblanadi.

2. Radiatsion terapiya. Yuqori energiyali nurlar yordamida saraton hujayralarini yo'q qilish usulidir. Radiatsion terapiya ko'pincha boshqa davolash usullari bilan birgalikda qo'llaniladi va samarali natija beradi.

3. Jarrohlik.Ushbu usul saratonli to'qimalarni olib tashlash uchun amalga oshiriladi. Agar saratonning dastlabki bosqichi ya'ni saraton yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, jarrohlik usuli orqali uni to'liq olib tashlash mumkin.

4. Immunoterapiya. Immun tizimini kuchaytirish va saraton hujayralariga qarshi kurashishda yordam berish uchun qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Bu usul saratonning ayrim turlaridagina samarali foyda beradi.

5. Germetik terapiya. Saraton huyaralarining o'ziga xosxususiyatlaridan foydalanish orqali davolanadigan usuldir. Bu usulda genetic modifikatsiya yoki hujayra terapiyasi qo'llanilishi mumkin.

6. Sintez qilingan terapiyalar. Hujayralarning o'ziga xos genetic belgilarini maqsad qilib olgan dorilar ushbu usulda qo'llaniladi. Bu usul turli xil saraton turlari uchun o'ziga xos bo'lishi mumkin.

Onkologik kasallanishning dunyo bo'yicha statistikasi shuni ko'rsatadi, 2020-yilda jahonda rak bilan 19,3 mln. Odam kasallangani aniqlangan bo'lib, ulardan 10 mln ga yaqini hayotdan ko'zyumgani ko'rsatilmoqda. Uning eng ko'p uchraydigan turi o'pka, me'da, sut bezi, yog'on ichak va bachardon bo'yni raki ekanligi ko'rsatilmoqda. Saraton kasalligi soni va saraton kasalligi tufayli o'lganlar soni tobora ko'payib bormoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2040-yilda saraton kasalligi soni 2020- yilga nisbatan 47 % ga ko'payishi aniqlanmoqda.[4]

Saraton kasalligi hozirgi kunda dolzarb, murakkab va ko'p qirrali bo'lib, uning kelib chiqish sabablari va davolash usullari turlicha bo'lishi mumkin. Saraton kasalligini oldini olish va davolash uchun bu kasallikni chuqur o'rganib, u haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish kerak bo'ladi.[5] Saraton kasalligi turli omillar, shu jumladan, genetik, atrof-muhit va turmush tarsi ta'siri ostida rivojlanadi, bu esa uning oldini olish va davolashni murakkablashtiradi. Saratonning oldini olishda sog'lom ovqatlanish, jismoniy faoliyat va zararli odatlardan voz kechish muhim rol o'ynaydi. Saratonni dastlabki bosqichida aniqlash, davolashning samaradorligini oshiradi va bemorning hayotini saqlab qolish ehtimolligi oshadi. Saraton bilan kurashayotgan bemorlar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam juda zarur hisoblanadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" 1992-y. 3-jild 109-bet
2. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" 1992-y. 3-jild 110-bet
3. Abu Ali Ibn Sino "Tib qoununlari" 1992-y. 3-jild 111-bet.
4. Jo'raev M.D., Karimova M.N., O'lmasov F.G. "Onkologiya" 2022-y
5. Rustam Nuriddinov "Saraton dardi bedavomi?" 2014-y